

**“XALQ TABOBATI: TARIXI, YUTUQLAR,
ISTIQBOLLAR”**

mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari
to‘plami

28 aprel 2023-yil

Toshkent sh., O‘zbekiston

Сборник материалов Международной научно-
практической конференции

**«НАРОДНАЯ МЕДИЦИНА: ИСТОРИЯ,
ДОСТИЖЕНИЯ, ПЕРСПЕКТИВЫ»»**

28 апреля 2023 года

г. Ташкент, Узбекистан

Collection of materials of the International scientific and
practical conference

**"TRADITIONAL MEDICINE: HISTORY,
ACHIEVEMENTS, PROSPECTS"**

28 April 2023

Tashkent, Uzbekistan

Ташкентская медицинская академия // Сборник материалов Международной научно-практической конференции «НАРОДНАЯ МЕДИЦИНА: ИСТОРИЯ, ДОСТИЖЕНИЯ, ПЕРСПЕКТИВЫ» Сборник материалов конференции // ООО "TIBVIYOT NASHRIYOTI MATVAA UYI" - 2023 - 112 стр.

Главный редактор	Шадманов А.К., ректор Ташкентской медицинской академии, профессор, д.м.н.
Заместитель главного редактора	Азизова Ф.Л., проректор по науке и инновациям Ташкентской медицинской академии, профессор, д.м.н.
Ответственный секретарь	Высогорцева О.Н., доцент кафедры реабилитологии, народной медицины и физической культуры, к.м.н.
Редколлегия:	Собирова Г.Н., профессор кафедры реабилитологии, народной медицины и физической культуры, д.м.н. Жумаева Г.А., доцент кафедры реабилитологии, народной медицины и физической культуры, к.м.н.

СОДЕРЖАНИЕ	
<i>A'zamjonov A.A., Abdurasulova M. B., Xasanova M.I., Raximova X. A. GEPATITNI DAVOLASHDA ZAMONAVIY YONDASHUV</i>	2
<i>Abilov O'rol HAMSHIRA VA MA'NAVIYAT</i>	2
<i>Ahmedova D.Sh., Toxtamuratova Z.Sh., Rayimberdiyev E.D OLIY O'QUV MUASSASALARIDAGI TALABALARNI SOG'LOM TURMUSH TARZIGA RIOYA QILISHI BO'YICHA SO'ROVNOMA TAHLILLARI</i>	4
<i>Allayeva M.J., Achilov .D.D. DIABETNING DITIZON MODELIDA UMUMIY LIPIDLAR DARAJASINI O'SIMLIGI EKSTRAKTINING GIPOLIPIDIMIK HAMDA GIPOXOLESTERINEMIK TA'SIR SAMARADORLIGI</i>	5
<i>Atamuratova F.S.IBN SINO SHIFOKOR AXLOQI HAQIDA</i>	7
<i>Azizov A.A. O'ZBEKLARDA ANIMALOTERAPIYA: ETNOGRAFIK QAYDLAR TAHLILI</i>	8
<i>Biykuziyeva A.A., Muxiddinova F.M, Sodikova N.S., Turdialiyeva Sh.U. IBN SINO TA'BLIMOTIDA BADAN TARBIYA TADBIRI – DAVOLOVCHI JISMONIY TARBIYA TO'G'RSIDA</i>	9
<i>Bo'riyev O., Iskandarov Sh. ABU RAYHON BYERUNIYNING ASARLARIDA ZARDUSHTIYLIK BILAN BOG'LIQ QARASHLAR</i>	10
<i>Bo'riyev O., Iskandarov Sh. «HUDUD UL-OLAM» VA UNDA QASHQADARYO VOHASI SHAHARLARI TAVSIFI</i>	12
<i>Ergasheva N.O. BO'G'IM KASALLILARNI DAVOLASHDA APITERAPIYANING O'RNI</i>	14
<i>Fayzullayeva O.U., Nazirtashova R.M. QANDLI DIABET KASALLIGI VA UNI DAVOLASHDA TOPINAMBUR O'SIMLIGIDAN FOYDALANISH</i>	15
<i>Ganijonov H. THE ROLE OF BEHAVIOR IN THE EARLY DETECTION OF SCHIZOPHRENIA</i>	16
<i>Hyangmi Gavart_KOREAN MEDICAL BOOK REPORT IN EUROPE</i>	17
<i>Jumanazarov X.S. O'ZBEK XALQINING TABOBAT AN'ANALARI TARIXI</i>	18
<i>Kim Taewoo THE EMERGENCE OF NEW TRADITIONAL ACUPUNCTURE PRACTICES IN KOREAN MEDICINE: A HISTORICAL AND ANTHROPOLOGICAL APPROACH</i>	20
<i>Mahmaraimov Sh.T., Soatova M.B. XONDROITIN SULFAT VA CENTELLA ASIATICA EXTRACTINI BIRGA QO'LLAGANDA TIZZA BO'G'IMI ARTROZIDA OG'RIQQA QARSHI TA'SIRINI O'RGANISH</i>	20
<i>Mahmaraimov Sh.T., Chutboev B.R., Choriev M.Yu. CENTELLA ASIATICA EXTRACTINING TIZZA BO'G'IMI ARTROZIDA YALLIG'LANISHGA QARSHI TA'SIRINI O'RGANISH</i>	21
<i>Maxmudov L.Yu. TIB QONUNLARIDA KASALLIKLAR, ULARNING ASOSIY SABABLARI VA KO'RINISHLARI HAQIDA YORITILISHI</i>	22
<i>Maxsumov Sh.M., Zayseva O.A. O'ZBEKISTON FARMAKOLOGLARINING FITOTERAPIYA RIVOJIGA QO'SHGAN HISSASI</i>	24
<i>Nazarbaiuly B. BASICS OF TRADITIONAL MEDICINE</i>	25
<i>Niyozova N.S. QADIMGI SHARQ TIBBIYOTINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI</i>	26
<i>O'tayev G'G' . YUQUMLI KASALLIKLARNING RIVOJLANISHIDA IBN SINO AMALIY MEROSINING O'RNI VA AHAMIYATI</i>	27
<i>Orazgalieva M.T. Aimagambetov M.Zh., Akbayeva M.M., Orazgalieva M.T., Shortombayev A.A., Yermukhambetov B.Y. ALGORITHM OF PROACTIVE THERAPY OF HEMOSTASIS DISORDERS IN PATIENTS WITH MECHANICAL JAUNDICE IN THE INTRA - AND POSTOPERATIVE PERIOD</i>	29
<i>Qosimjanova N. A., Raximova X.A. ABU ALI IBN SINO TA'LIMOTIDA FARMASEVTIKA</i>	30

- обрядов у узбеков Хорезма... – 326 с.
4. Юқоридаги асар... – 175–176 с.
5. Ilomäki H. Animals in People’s Mind and in the Language of Folklore. // <http://www.folklore.ee/folklore/vol21/animals.pdf>. – P. 141. (13.10.2017).
6. Жуков Д.А. Зачем изучать поведение животных? – Санкт-Петербург, 2017. – 22 с

IBN SINO TA’LIMOTIDA BADAN TARBIYA TADBIRI – DAVOLOVCHI JISMONIY TARBIYA TO’G’RISIDA

Biykuziyeva A.A., Muxiddinova F.M, Sodikova N.S., *Turdialiyeva Sh. U.

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi

**Mirzo Ulugbek nomidagi O‘zbekiston Milly Universiteti*

Maqsad: Abu Ali Ibn Sino ta’limotida badan tarbiyani zamonaviy davolash jismoniy tarbiya (DJT) usullari bilan solishtirgan xolda o‘rganib chiqish.

Vazifalar: Badan tarbiya bilan shug‘ullanishning buzilgan xiltlarga ta’sirini o‘rganish. Ibn Sino tabobatida badan tarbiya turlarini farlash va taxlil qilish.

Alloma asarlarida keltirib o‘tilgan badan tarbiya uchun qarshi ko‘rsatmalarni to‘g‘ri qo‘llay bilish.

Abu Ali ibn Sino uzoq yashash xususida fikr yuritib, inson yashayotgan davrida e’tibor berishi kerak bo‘lgan talablarni keltirib o‘tgan, shular qatorida asosiy o‘rin olgan omil bu badantarbiya ekanligi ko‘rsatilgan. Xususan, alloma badantarbiya haqida shunday deydi: “Sog‘liqni saqlashning asosiy tadbiri badantarbiya bo‘lib, keyin ovqat tadbiri va uyqu tadbiri bo‘lganidan so‘zni badantarbiyadan boshlaymiz. Biz aytamizki, badantarbiya kishini chuqur va ketma-ket nafas olishga majbur qiluvchi ixtiyoriy harakatdir. Mo‘tadil ravishda va o‘z vaqtida badantarbiya bilan shug‘ullanuvchi odam buzilgan xiltlar tufayli kelgan kasalliklarning va mizoj hamda ilgari o‘tgan tufayli keluvchi kasalliklarning davosiga muxtoj bo‘lmaydi”. Darhaqiqat, hozirgi kunga kelib jismoniy tarbiya inson xayotida o‘z axamiyatini yo‘qotgani yuq, balki aksincha oshib bormoqda. Bunga sabab zamonaviy xayot tarzimizda kamxarakat mexnat faoliyati va turli alimentar omil bilan bog‘liq kasalliklarni (allergik kasalliklar, semizlik, qandli diabet v.b.) ko‘payib borayotganligidir. Yana bir sabab insonlarning tibbiy madaniyati oshishi bilan ularning o‘z jismoniy va ruxiy salomatligiga katta axamiyat qaratishidir.

Shunday ekan davolovchi jismoniy tarbiyani (DJT) turli kasalliklarni davolash va profilaktikasida qo‘llanilishi yuqori natijalarni ko‘rsatmoqda. Bu natijalarga erishish DJT vazifalaridan kelib chiqadi albatta:- bemorlarda gipokineziyani oldini olish va fizik aktivlikni oshirish; - buzilgan funksiyalarni tiklash (a‘zo va tizimlarda); - bemor sog‘lig‘ini tiklash va jismoniy zo‘ruqishlarga adaptatsiyasini oshirish;

“Badantarbiyaning turlariga kelsak, ular quyidagilardir: o‘zaro tortishish, musht bilan turtishish, yoydan o‘q otish, tez yurish, nayza otish, yuqoridagi bir narsaga irg‘ib osilish, bir oyog‘ida sakrash, qilichbozlik va nayzabozlik, otda yurish, ikki qo‘lini silkitish, bu vaqtda odam oyoq uchlarida turib, qo‘llarini oldga va orqaga cho‘zib tez harakat qiladi. Bular tez harakatlar jumlasidandir. Nozik va yengil badantarbiya turlariga arg‘imchok, osmonda uchish, belanchaklarda o‘tirish, uchish, qayiq yoki qayiqda sayohat qilishni o‘z ichiga oladi”. Keltirib o‘tilgan xarakatlar hozirda DJTning jismoniy mashqlar vositasi deb atalib bu mashqlar o‘z navbatida Gimnastik mashqlar, Amaliy sport mashqlari va O‘yinlarga bo‘linib o‘rganiladi.

Yana quyidagi xarakatlar yoritilgan bo‘lib ularning foydasi xaqida so‘z yuritilgan: “Puflash va nafasni ushlab turish ham kiradi. Bu butun tanaga (old) harakat bo‘lib, undagi yo‘llarni kengaytiradi. Har bir odamga o‘ziga xos harakatlar tanlanishi kerak. Belanchaklarda uchish kabi yengil harakat isitmadan xolsizlangan kishilar uchun va o‘tirishga qurbi yetmaydigan kishilar uchun muvofiq. Ovqat hazm qilish a‘zolariga kelsak,

ularning badantarbiyasi butun tananing badantarbiyasiga itoatlidir. Ko'zni esa, mayda buyumlarga tikilib qarab, vaqti-vaqti bilan yuqoridagi narsaga tez ko'z yugurtirish bilan ko'chiriladi".

Shubxasiz Alloma ta'riflab bergan ushbu mashqlar biroz zamonaviy ko'rinishda turli a'zo va tizimlar kasalliklarini davolash va oldini olish uchun qo'llaniladi.

Bundan tashqari Ibn Sino badantarbiyani buyurishdagi qarshi ko'rsatmalarni xam sanab o'tib, ular haqida shunday degan: "Badantarbiya bilan mashg'ul bo'luvchi kishi o'zining sust a'zolarini ortiqcha harakat qildirishdan saqlanishi lozimdir. Harakatlar (a'zolarining holiga qarab) turlicha bo'ladi. Masalan, oyoq venalarining kengayishi kasalligi bilan og'rikan kishi oyoqni ko'p harakat qildirishni talab qiluvchi harakat bilan shug'ullanmay, oz qimirlatishni talab qiluvchi harakat bilan shug'ullanishi kerak va harakatning ko'pini gavdaning yuqori qismiga – bo'yin, bosh, qo'llarga ko'chirishi kerak.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki Buyuk Olim tabobatda qo'llagan badan tarbiya tadbirlarini zamonaviy tibbiyotdagi DJT usullari bilan integratsiya qilish yo'li bilan turli kasalliklarni davolashda samarali ishlar olib borish mumkinligi taxlil qilindi. Bunday natijalarga erishish uchun esa bizning oldimizda olimning xali o'rganilmagan qancha buyuk meroslari mavjud bo'lib ularni o'rganib chiqish biz avlodlar oldimizdagi ulkan burchdir.

ABU RAYHON BYERUNIYNING ASARLARIDA ZARDUSHTIYLIK BILAN BOG'LIQ QARASHLAR

Ochil Bo'riyev (professor, Tarix fanlari bo'yacha PhD), Sherzod Iskandarov (dotsent)

Qarshi DU Jahon tarixi kafedrasida, Ijtimoiy fanlar kafedrasida

Ma'lumki, zardushtiylik dinining asosiy mohiyati olovga sig'inish bilan bog'liq bo'lgan. Zardushtiylarda olov kishilarni har kandy gunohdan poklovchi kuch, deb qaralgan. Shuning uchun ham bu dinga ishonuvchilar "otashparastlar" deb atalgan. Olov bilan bog'liq marosimlar va bayramlarning ommalashishi sabablari ham ajdodlarimizning zardushtiylik diniga etiqod qilganiga borib taqaladi. Agar bahor oxiri va yozda suvga e'tiqolish odatlari keng tarqalgan bo'lsa, kech kuz, qish va erta bahorda uyushtiriladigan barcha bar va marosimlarda olov yoki gulxan yoqish asosii taomilga aylangan. Zardushtiylar o'zlarining bayram yoki marosimlarini o'tkazish uchun doimo o't yonib turadigan "otashxona"larga yig'ilishgan. Masalan, Buxoroda majusiylar Navsard oyining 28 - kunida o'tkazadigan «Romush Og'om» nomli bayramda otashxonalariga to'planishgan va uni yonib turgan gulxan atrofida nishonlashgan.

Beruniy «Romush Og'om» bayrami haqida shunday yozgan: «Romush Og'om» ular uchun eng aziz bayramlardan bo'lib, har bir qishloqda (o'tkaziladi). Ular har qaysi (qishloq) raisi huzuriga yig'iladilar va yeb-ichadilar. Bu navbati bilan (hamma qishloqda) bo'lib o'tadi».

Ajdodlarimiz e'tiqodi asosida vujudga kelgan zardushtiylik diniga xos ko'pgina odatlar, bayramlar, rasm-rusumlar hozirgi paytgacha ham saqlanib qolgan. Albatta ular ichida eng kattasi Navro'z bayramidir. Shu bilan birga, kasallikning oldini olish yoki undan saqlanish uchun isiriq tutatish, turli marosimlarda sham yoqish, to'ylarda gulxan atrofida aylanish, o't atrofida kechki bazmlar uyushtirish, chavandozlarning katta gulxan alangasi ustidan sakrash o'yinlari, ba'zi bemorlarning shifo topish maqsadida gulxan ustidan hatlab o'tishlari, chaqaloqni olov ustidan o'tkazib olish, muqaddas daraxtlar shoxiga turli lattalardan «alam» bog'lash kabi udumlarni hozir ham uchratish mumkin. Quyoshni ozodalik bilan kutib olish, tongdan hovlini tozalash, uyni supurish, yuvinish, o'choqqa olov yoqish, olov yordamida oziq-ovqatlarni zararsizlantirish, kul olish, turli giyohlarni tutatish kabi ham zardushtiylardan o'tib kelayotgan odatlardir.

Zardushtiylar odatlari ajdodlarimizning bebaho tarixiy merosidir. Balki hozirgi paytda zardushtiylarning barcha odatlariga ehtiyoj yo'qdir. Biroq ularning barchasini o'rganib, bilib qo'yish lozim. Zamonamizga mos keladiganlaridan esa foydalanish lozim. Albatta,